
Didactic Possibilities of Webquest Technology in Developing Creative Competence of Future English Language Teachers

Jumayeva Umida Farhod qizi
umidajumaeva1997@gmail.com

PhD student,
Uzbekistan State World Languages University

Scientific advisor: **Moydinova Elmira Kamariddinovna**
mirlife645@gmail.com

PhD, Associate professor,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article examines the didactic potential of WebQuest technology in developing the creative competence of future English language teachers. Developed in 1995 by the American educator Bernie Dodge, WebQuest is defined as an innovative educational technology based on the purposeful use of Internet resources. The study focuses on key components of creative competence, including creative thinking, non-standard problem solving, independent decision-making, and the ability to produce original ideas and creative products. The article also highlights the role of WebQuest technology in fostering critical and creative thinking, independent learning, collaborative work, and information-communication competencies among students. In addition, the characteristics of short-term and long-term WebQuests, their integration into the educational process, and effective methods of application in teacher training are discussed in detail. The findings demonstrate that systematic use of WebQuest technology increases students' motivation, enhances practical learning activities, and significantly improves the creative competence of future English language teachers in modern education.

Keywords

WebQuest technology, creative competence, English language teacher, didactic possibilities, creative thinking, innovative education, professional training

Vebkvest texnologiyasining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani takomillashtirishdagi didaktik imkoniyatlari

Jumayeva Umida Farhod qizi
umidajumaeva1997@gmail.com

Tayanch doktorant,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: **Moydinova Elmira Kamariddinovna**
mirlife645@gmail.com

PhD, dotsent,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini takomillashtirishda vebkvest texnologiyasining didaktik imkoniyatlari keng qamrovda tahlil etilgan. Vebkvest texnologiyasi 1995-yilda amerikalik pedagog Bernie Dodge tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, internet resurslari asosida tashkil etiladigan zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyasi sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotda kreativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, ijodiy

tafakkur, muammolarni noan'anaviy usullar orqali hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish hamda original mahsulot yaratish ko'nikmalari yoritilgan. Shuningdek, vebkvest texnologiyasining talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish, jamoada samarali hamkorlik qilish va axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada qisqa va uzoq muddatli vebkvestlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashdagi samarali usullari bayon qilingan. Bundan tashqari, vebkvest topshiriqlarining motivatsiyani oshirish, mustaqil izlanishga yo'naltirish va talabalarning amaliy faoliyatini faollashtirishdagi roli ham asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari vebkvest texnologiyasidan tizimli foydalanish kreativ kompetensiyaning sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar *Vebkvest texnologiyasi, kreativ kompetensiya, ingliz tili o'qituvchisi, didaktik imkoniyatlar, ijodiy tafakkur, innovatsion ta'lim, kasbiy tayyorgarlik*

**Дидактические возможности
технологии веб-квест в
совершенствовании
креативной компетенции
будущих учителей английского
языка**

Жумаева Умида Фарход қизи
umidajumaeva1997@gmail.com

Докторант (PhD)

Узбекский государственный университет
мировых языков

Научный руководитель: **Мойдинова
Эльмира Камариддиновна**

mirlife645@gmail.com

PhD, доцент,

Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В данной статье всесторонне анализируются дидактические возможности технологии веб-квест в совершенствовании креативной компетенции будущих учителей английского языка. Технология веб-квеста была разработана в 1995 году американским педагогом Б.Дж. Доджем и рассматривается как современная инновационная образовательная технология, основанная на целенаправленном использовании интернет-ресурсов в учебном процессе. В исследовании раскрываются основные компоненты креативной компетенции, включая творческое мышление, способность решать проблемы нестандартными способами, принимать самостоятельные решения, выдвигать инновационные идеи и создавать оригинальные продукты. Кроме того, обоснована роль технологии веб-квест в развитии у студентов критического и творческого мышления, организации самостоятельной познавательной деятельности, эффективного сотрудничества в коллективе, а также формировании информационно-коммуникационных компетенций. В статье подробно рассматриваются особенности краткосрочных и долгосрочных веб-*

квестов, механизмы их интеграции в образовательный процесс и эффективные методы применения в профессиональной подготовке будущих учителей английского языка. Также особое внимание уделяется влиянию веб-квест заданий на повышение учебной мотивации, активизацию исследовательской деятельности студентов и развитие их практических навыков. Результаты исследования подтверждают, что систематическое использование технологии веб-квест способствует значительному развитию креативной компетенции обучающихся и повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова *Технология веб-квест, творческая компетенция, учитель английского языка, дидактические возможности, творческое мышление, инновационное образование, профессиональная подготовка*

Kirish

XXI asr ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan nafaqat chuqur kasbiy bilim, balki kreativ tafakkur, yangilikka intilish va muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatlari ham talab etiladi. Ana shunday sharoitda kreativ kompetensiyani rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Vebkvest (WebQuest) texnologiyasi – so'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan ta'lim vositalaridan biridir. Ushbu texnologiya 1995 yilda amerikalik pedagog B.J. Dodge tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarni internet resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishga yo'naltiradi (Dodge, 1995). Vebkvestning o'ziga xos pedagogik imkoniyatlari uni chet tili ta'limida, xususan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda keng qo'llashga asos beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – vebkvest texnologiyasini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani

takomillashtirishga yo'naltirilgan didaktik vosita sifatida o'rganish va uning asosiy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: vebkvest texnologiyasining mohiyati va turlarini tahlil etish; kreativ kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslarini ko'rib chiqish; vebkvest texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda tajriba o'tkazish orqali natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda vebkvest texnologiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi kontekstida kreativ kompetensiyani rivojlantiruvchi tizimli didaktik vosita sifatida birinchi bor kompleks o'rganilmoqda. Z.D. Yusupova (2019) pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat munosabatini tadqiq etib, o'qituvchi shaxsini rivojlantirishda innovatsion usullarning o'rni katta ekanligini alohida ta'kidlaydi.

1. Vebkvest texnologiyasining mohiyati va turlari

"Vebkvest" atamasi inglizcha "web" (internet) va "quest" (izlanish, muammo hal etish) so'zlaridan tashkil topib, internetdagi ma'lumotlardan foydalanib bajariluvchi muammoli topshiriq demakdir. Dodge (1995) ta'rifiga ko'ra, vebkvest – o'quvchilar tomonidan internetdan olingan ma'lumotlar

asosida bajariluvchi tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatdir. Bunda ma'lumotlarning barcha yoki ko'p qismi internet saytlaridan olinadi.

Ya.S. Bykhovsky (1999) vebkvestni o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi, hamkorlikda ishlashga asoslangan ta'lim muhiti sifatida tavsiflaydi. Rus olimasi E.S. Polat (2007) esa vebkvest texnologiyasini konstruktivistik ta'lim yondashuvining Internet muhitidagi namoyon bo'lishi deb baholaydi, zero unda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmay, uni o'zi qurib boradi.

T. March (1998) vebkvestni ikki asosiy turga ajratadi: qisqa muddatli (short-term) va uzoq muddatli (long-term). Qisqa muddatli vebkvestlar bir yoki bir necha dars davomida bajariladi va ma'lum mavzu yuzasidan bilimlarni o'zlashtirish yoki umumlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Uzoq muddatli vebkvestlar bir necha hafta yoki oyga mo'ljallangan bo'lib, chuqur tahlil va ijodiy mahsulot yaratishni ko'zda tutadi (March, 1998). T. March (2003) keyingi tadqiqotlarida vebkvestning o'quv jarayonidagi motivatsion kuchini yanada kengroq tahlil qilib, ta'kidlashicha, sifatli vebkvest talabalarda autentik bilim olishga bo'lgan intilishni uyg'otadi.

D.H. Jonassen (2000) vebkvestni "mind tools" – intellektni rivojlantiruvchi vositalar qatorida ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, bunday texnologiyalar talabalarni passiv ma'lumot qabul qiluvchilardan faol bilim yaratuvchilarga aylantiradi (Jonassen, 2000). Bu yondashuv vebkvest texnologiyasini kreativlikni rivojlantirishda ayniqsa samarali qiladi.

Vebkvest tuzilishi Dodge (1995) taklif etgan quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: (1) kirish – topshiriqning kontekstini taqdim etish va motivatsiya uyg'otish; (2) topshiriq – aniq va qiziqarli maqsadni belgilash; (3) jarayon – topshiriqni bajarish bosqichlari; (4) resurslar – tanlangan internet manbalari ro'yxati; (5) baholash – mezonlar rubrikasi; (6) xulosa – yakuniy aks-sado va o'z-o'zini baholash.

2. Kreativ kompetensiya: tushuncha va tarkibiy qismlar

"Kreativ kompetensiya" tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda pedagogika fanida keng muhokama etilmoqda. T.M. Amabile (1996) ijodkorlikni uch komponentning birlashmasida ko'radi: mutaxassislik sohasidagi bilimlar (domain-relevant skills), ijodiy jarayonlar (creativity-relevant skills) va ichki motivatsiya (intrinsic task motivation). Bu ta'rif kreativ kompetensiyaning ko'p qirrali tabiatini ochib beradi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash uchun keng metodologik asos yaratadi.

E.P. Torrance (1966) kreativlikni o'lchash va rivojlantirish sohasida fundamental tadqiqotlar olib borgan. Uning modeliga ko'ra, kreativlik quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: ravonlik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), o'ziga xoslik (originality) va kengaytirish (elaboration) qobiliyatlari (Torrance, 1966). Ushbu komponentlar bo'lajak o'qituvchilar uchun ayniqsa muhim, chunki ular dars jarayonida doimiy ravishda yangi g'oyalar va yondashuvlar ishlab chiqishlari zarur.

Rus olimi A.V. Xutorskoy (Khutorskoy, 2003) kompetentli yondashuv doirasida kreativ kompetensiyani ta'lim oluvchilarning muammoli vaziyatlarda yangi, g'ayrioddiy yechimlar topish, bilimlarni yangi kontekstga ko'chirish va original mahsulot yaratish qobiliyatlari majmui sifatida belgilaydi. Uningcha, kreativ kompetensiya o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, bilimlarini hamda ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbek olimlari ham ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. B.S. Abdullayeva (2020) kreativ fikrlashni pedagogik nuqtai nazardan o'rganib, uni o'quvchi-talabalar faoliyatida noaniq, muammoli vaziyatlarda optimal yechim topish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim usullari ko'pincha kreativ kompetensiyaning rivojlanishiga to'siq bo'ladi, shu bois innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruriyati yuzaga keladi (Abdullayeva, 2020).

I.L. Kolesnikova (2008) chet tili ta'limida kreativlikning o'rni haqida so'z yuritib,

o'qituvchining kreativ salohiyati bevosita talabalar kreativligini shakllantirishga ta'sir qilishini alohida ta'kidlaydi. Shuning uchun chet tili metodikasi kursida kreativ kompetensiyani rivojlantiruvchi texnologiyalarni o'rgatish nafaqat ixtiyoriy qo'shimcha, balki kasbiy zaruriyat hisoblanadi (Kolesnikova, 2008).

3. **Vebkvest texnologiyasining kreativ kompetensiyani takomillashtirishdagi didaktik imkoniyatlari**

Vebkvest texnologiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun bir qator muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Ushbu imkoniyatlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin.

a) *Muammoli vaziyatlarni modellashtirish.* Vebkvest topshiriqlari doimo muammoli xarakter kasb etadi – talaba nafaqat ma'lumot to'playdi, balki uni tanqidiy tahlil qiladi, turli manbalarni solishtiradi va o'zining asoslangan pozitsiyasini shakllantiradi. Bu jarayon Torrance (1966) tomonidan kreativlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ajratilgan o'ziga xoslik va moslashuvchanlikni rivojlantiradi. J.A. Mirzaev (2021) ta'kidlashicha, muammoli ta'lim vaziyatlari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy-kreativ tafakkurni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir.

b) *Autentik internet resurslaridan foydalanish.* Chet tili ta'limida autentik material bilan ishlash o'qituvchi tayyorlashning muhim jihatlaridan biridir. Kolesnikova (2008) ta'kidlaganidek, chet tilida autentik material bilan muloqot talabalarda til kompetensiyasi bilan birga interkultura va kreativ kompetensiyani ham rivojlantiradi. Vebkvestda talabalar real ingliz tilida yaratilgan materiallar – maqolalar, videolar, podkastlar va veb-saytlar bilan ishlaydi, bu esa ularning til ko'nikmalarini tabiiy ravishda takomillashtiradi.

c) *Hamkorlikda ijodiy mahsulot yaratish.* Vebkvest topshiriqlari odatda guruh ishini nazarda tutadi. Bu jarayonda talabalar nafaqat bilim almashadi, balki birgalikda ijodiy strategiya ishlab chiqadi, rollarni taqsimlab, birgalikda original mahsulot – taqdimot, esse, loyiha yoki multimediyalar yaratadi. Polat (2007) ta'kidlaganidek, hamkorlikka asoslangan loyihalar talabalarda ijodiy tashabbuskorlik, o'zaro hurmat va mas'uliyatlilikni bir vaqtda shakllantiradi.

d) *Raqamli savodxonlik va AKT kompetensiyasini rivojlantirish.* Vebkvest texnologiyasini bajarish davomida talabalar turli raqamli vositalar va platformalar bilan tanishadi. Jonassen (2000) fikriga ko'ra, raqamli vositalar bilan ishlash chog'ida talabalar o'zlarining bilim tuzilmalarini qurib boradilar, bu esa ularga bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish va originallikni namoyon qilish imkonini beradi. Amabile (1996) konsepsiyasi asosida aytadigan bo'lsak, raqamli vositalar talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ijodiy jarayonni osonlashtiradi.

e) *Refleksiya va o'z-o'zini baholash.* Vebkvestning yakuniy bosqichi jarayon va natijani baholash bo'lib, unda talabalar o'z faoliyatlarini tahlil qiladilar. Bykhovsky (1999) qayd etishicha, vebkvest baholash rubrikasida ko'rsatilgan mezonlar talabalarni o'z ishi ustida chuqur o'ylashga, kamchilik va yutuqlarni aniqlashga majbur qiladi. Polat (2007) bu jarayonni o'z-o'zini refleksiya deb atab, uni ijodiy jarayonning muhim komponenti sifatida ko'rsatadi.

4. **Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda vebkvest qo'llashning amaliy jihatlari**

Vebkvest texnologiyasini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga integratsiyalash uch strategik yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi yo'nalish – uslubiy tayyorgarlik.

Bu bosqichda talabalar vebkvest texnologiyasining nazariy asoslari, turlari va tuzilishi bilan tanishtiriladi. Ular Dodge (1995) taklif etgan klassik vebkvest tuzilmasini o'rganib, turli namunalarni tahlil qiladilar. Yusupova (2019) pedagogik texnologiyalarni o'rganishda nazariy tayyorgarlik muhim poydevor ekanligini uqtirib, shu asosda amaliy faoliyat samarali bo'lishini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish – vebkvest loyihalarini ishlab chiqish. Talabalar o'zlari ingliz tili darslari uchun vebkvest loyihalarini yaratishni o'rganadilar. Bu jarayonda ular maqsadni belgilash, manbalarni tanlash, topshiriqlarni formulalash va baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy ko'nikmalar egallaydilar. Mirzaev (2021) bu yo'nalishni bo'lajak o'qituvchilarni texnologik savodxonlikka ega kadrlar sifatida tayyorlashning asosiy vositasi deb belgilaydi.

Uchinchi yo'nalish – vebkvestlarni sinf sharoitida qo'llash. Talabalar pedagogik amaliyot davomida o'zlari ishlab chiqqan vebkvestlarni sinovdan o'tkazadilar. March (2003) ta'kidlashicha, o'qituvchilar vebkvestni o'z sinfida qo'llab ko'rgandagina uning haqiqiy pedagogik qudratini anglab yetadilar. Bu tajriba talabalarda refleksiv pedagogik tafakkurni shakllantiradi va vebkvest metodologiyasini real pedagogik sharoitda sinab ko'rish imkonini beradi.

Bykhovsky (1999) tomonidan taklif etilgan vebkvest baholash mezonlari ham kreativ kompetensiyaning o'sishini kuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonlar: topshiriqning qanday tushunilgani, manba va ma'lumotlardan foydalanish darajasi, hamkorlik ko'rsatkichlari, yakuniy mahsulot sifati va jarayonni refleksiya qilish qobiliyatini baholashni o'z ichiga oladi.

Xulosalar va Tavsiyalar

Ushbu maqolada vebkvest texnologiyasining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani takomillashtirishdagi didaktik imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil etildi. O'tkazilgan ilmiy-

adabiy tahlil asosida qator muhim xulosalarga kelish mumkin:

- a) Vebkvest texnologiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik jihatdan asoslangan va samarali vositasidir. Dodge (1995) tomonidan yaratilgan va March (1998, 2003) tomonidan takomillashtirilgan ushbu texnologiya o'z tuzilmasiga ko'ra – muammoli topshiriq, yo'naltirilgan manba qidirish, hamkorlikda ishlash va refleksiya – kreativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini, ya'ni Torrance (1966) modeli asosidagi ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va kengaytirish qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi.
- b) Vebkvest texnologiyasi o'z didaktik tabiatiga ko'ra Amabile (1996) belgilagan kreativlikning uchta muhim sharti – mutaxassislik bilimi, ijodiy jarayon ko'nikmalari va ichki motivatsiyani – bir o'quv faoliyati doirasida uyg'unlashtiradi. Autentik internet manbalari bilan ishlash talabada kasbiy bilimni, muammoli topshiriqni hal etish ijodiy jarayon ko'nikmalarini, qiziqarli mavzu esa ichki motivatsiyani ta'minlaydi. Bu uyg'unlik Abdullayeva (2020) tomonidan ta'kidlangan an'anaviy ta'limning kreativ kompetensiyaga nisbatan cheklanganligini samarali bartaraf etadi.
- c) Khutorskoy (2003) ning kompetentnostli yondashuvi nuqtai nazaridan vebkvest texnologiyasi kreativ kompetensiyani yakka holda emas, balki kognitiv, kommunikativ, axborot-raqamli va interkultura kompetensiyalari bilan uzviy birgalikda shakllantiradi. Bu xususiyat vebkvestni chet til ta'limida, ayniqsa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda kompleks va integrativ vosita sifatida ko'rishga imkon beradi. Polat (2007) va Jonassen

(2000) tadqiqotlari ham ushbu xulosani nazariy jihatdan to'liq asoslab beradi.

- d) Bykhovsky (1999) va Kolesnikova (2008) tomonidan tadqiq etilgan baholash va refleksiya mexanizmlari vebkvestni shunchaki topshiriq bajarishdan emas, balki o'z faoliyatini anglash va mustaqil tafakkur yuritish jarayoniga aylantiradi. Kreativ kompetensiyani rivojlantirishda bu jihat ayniqsa muhim, chunki ijodiy o'sish refleksiyasiz, ya'ni o'zini o'zi baholamasdan va qayta ko'rib chiqmasdan amalga oshishi mumkin emas. Mirzaev (2021) fikriga ko'ra, refleksiv pedagogik tafakkur bo'lajak o'qituvchining kasbiy kamolotida asosiy omillardan biridir.

Maqolada keltirilgan nazariy tahlil va olimlar tadqiqotlari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi.

- a) O'quv dasturlariga integratsiya. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" hamda "Chet tili pedagogikasi" fanlarining o'quv dasturlariga vebkvest texnologiyasini nazariy-amaliy o'rganish bo'yicha alohida modul kiritish tavsiya etiladi. Yusupova (2019) ta'kidlaganidek, pedagogik texnologiyalarni o'rganish faqat nazariy ma'ruza shaklida emas, balki amaliy loyihalash orqali samarali o'zlashtiriladi. Shuning uchun bunday modul talabalarga vebkvest nazariyasini o'rgatish bilan birga ularni o'zlari vebkvest loyihasi ishlab chiqishga yo'naltirishi lozim.
- b) Uzoq muddatli vebkvest loyihalarini joriy etish. March (2003) tadqiqotlari asosida aytadigan bo'lsak, kreativ kompetensiyani rivojlantirishda eng yuqori natijani uzoq muddatli vebkvestlar beradi, chunki ularda talabalar chuqur tahlil, sintez va original mahsulot yaratish jarayonlarini to'liq boshdan kechirishadi. Shu boisdan semestlik amaliy

mashg'ulotlar tizimida kamida bittadan uzoq muddatli (3–4 haftalik) vebkvest loyihasi rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

- c) Raqamli platformalardan foydalanishni ta'minlash. Jonassen (2000) "mind tools" konsepsiyasiga muvofiq, vebkvest samarasi ko'p jihatdan foydalaniladigan raqamli vositalar sifatiga bog'liq. Ta'lim muassasalari Google Sites, Padlet, Wakelet yoki Sway kabi platformalar asosida vebkvest yaratiladigan raqamli muhitni ta'minlashi, talabalar esa ushbu vositalarni kasbiy foydalanish darajasida o'zlashtirishlari lozim.
- d) Kreativ kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish. Amabile (1996) ning Consensual Assessment Technique usuli va Torrance (1966) modelidagi kreativlik ko'rsatkichlari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini baholashga mo'ljallangan maxsus rubrika (baholash ko'rsatkichlari jadvali) ishlab chiqilishi zarur. Bunday rubrika talabaning ijodiy o'sishini kuzatib borish va aks-sado berish imkonini yaratadi.
- e) O'qituvchi tayyorlashda vebkvest metodologiyasini o'rgatish. Abdullayeva (2020) va Mirzaev (2021) tadqiqotlari asosida aytadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchi vebkvestni faqat bajaruvchi sifatida emas, balki uni loyihalab va o'z darsida qo'llay oladigan metodist sifatida tayyorlanishi lozim. Buning uchun pedagogik amaliyot davomida talabalarining o'zlari ishlab chiqqan vebkvest loyihalarini haqiqiy sinf sharoitida sinovdan o'tkazishlari va keyinchalik refleksiya qilishlari ta'minlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, vebkvest texnologiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy jihatdan asoslangan,

amaliy jihatdan qulay va didaktik jihatdan kuchli vositasi sifatida baholanishi asoslidir. Ushbu texnologiyani ta'lim amaliyotiga tizimli joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimida kreativ, raqobatbardosh va raqamli savodxon ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda muhim qadam

bo'lishi shubhasizdir. Kelgusida vebkvest texnologiyasini sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim platformalari bilan integratsiyalash hamda uning ta'sirchanligini tajriba-sinov tadqiqotlari orqali empirik tekshirish muhim ilmiy vazifalar sifatida ko'zda tutilmoqda.

References:

1. Abdullayeva, B. S. (2020). *Kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari*. Fan.
2. Amabile, T. M. (1996). *Creativity in context*. Westview Press.
3. Bykhovsky, Ya. S. (1999). *Образовательные веб-квесты*. IOSO RAO.
4. Dodge, B. J. (1995). WebQuests: A technique for internet-based learning. *Distance Educator*, 1(2), 10–13.
5. Jonassen, D. H. (2000). *Computers as mindtools for schools: Engaging critical thinking*. Prentice Hall.
6. Khutorskoy, A. V. (2003). Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya. *Narodnoe obrazovanie*, 2, 58–64.
7. Kolesnikova, I. L. (2008). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam*. Akademiya.
8. March, T. (1998). *Why WebQuests? An introduction to a useful web-based structure*. <http://www.ozline.com/webquests/intro.html>
9. March, T. (2003). The learning power of WebQuests. *Educational Leadership*, 61(4), 42–47.
10. Mirzaev, J. A. (2021). *Ingliz tili o'qitishda zamonaviy texnologiyalar*. O'zbekiston.
11. Polat, E. S. (2007). *Novye pedagogicheskie i informatsionnye tekhnologii v sisteme obrazovaniya*. Akademiya.
12. Torrance, E. P. (1966). *Torrance tests of creative thinking*. Personnel Press.
13. Yusupova, Z. D. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. TDPU.